

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT XATI

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan **2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasiga muvofiq** Namangan davlat pedagogika institutida **2025-yil 15-16-may** kunlari **“Oila institutining ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rni va oila mustahkamligini ta’minlash omillari”** mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazish rejalashtirilgan.

Anjumanda quyidagi masalalar muhokama qilinadi:

- 1-sho‘ba: Oila – davlat siyosatining muhim yo‘nalishi;**
- 2-sho‘ba: Ijtimoiy taraqqiyot va oila instituti;**
- 3-sho‘ba: Oila va nikohning ma’naviy-ruhiy omillari;**
- 4-sho‘ba: Oila mustahkamligini ta’minlovchi omillar.**
- 5-sho‘ba: Oilada ekologik ong va madaniyatni yuksaltirish mexanizmlari.**

Maqolaga qo‘yiladigan talablar:

- Annotatsiya va kalit so‘zlar uchta (o‘zbek, rus, ingliz) tillarida berilishi shart;
- maqola Times New Roman shriftida 14 kattalikda, 1.5 intervalda qabul qilinadi;
- mavzu nomi bosh harflarda va qoraytirilgan holda, mavzudan so‘ng esa muallif(lar)ning F.I.Sh. va ish (o‘qish) joyi to‘liq keltiriladi.
- maqolaga annotatsiyasi (maqolaning muxtasar mazmuni va maqsadi) va kalit so‘zlari berilishi **shart**;
- maqolaga havola(snoska)lar [1,2,...] ko‘rinishida va maqola so‘ngida adabiyot sifatida ko‘rsatilishi lozim;
- Rasmlar: Barcha grafik materiallar (chizma, jadval, diagramma, rasm) «Rasm» (“Rasm.”) deb arab raqamlari bilan qayd etiladi. Belgi yoki ishoralar – rasm ostida, keyingi qatorda, o‘rtada joylashtiriladi va qoraytirilgan shrift bilan belgilanadi.
- Maqola faylini sho‘ba raqami va muallifning familiyasi bilan saqlanadi.

Namuna: 1_Abdullayev A.

1-rasm. Rasm nomi

Rasm matndan yuqori va pastdan bir qatordan bo‘sh qoldiriladi. Barcha rasmlarda xavola bo‘lishi shart (1-rasm).

- Jadvallar: “Jadval” so‘zi bilan ifodalanib arab raqamlari bilan qayd etiladi. Jadvalning nomlanishi va qayd raqami (nuqtasiz) beriladi va o‘ng tomonga

to'g'rilanadi, jadvalning nomi keyingi qatorda o'rtadan qoraytirilgan shriftda yoziladi.

- maqola 3-7 sahifadan iborat bo'lishi shart;
- maqola ilmiy asoslangan bo'lishi hamda maqola muallifidan ilmiy darajasi yuqori bo'lgan yetakchi mutaxassis tomonidan kamida 1 ta taqriz tahrir qilingan holda 1 nusxa qog'ozda va elektron variantda topshiriladi;
- maqoladagi ma'lumot va dalillarning aniqligi, to'g'riligi va ko'chirmakashlikka yo'l qo'yilmaganligiga muallif javobgardir.
- maqolalar tahrir hay'ati tomonidan tahlil qilinadi va ekspertlar tomonidan

tavsiya etilgan maqolalar chop etiladi;

- tavsiya etilmagan maqolalar chop etilmaydi va maqolalar muallifga qaytarilmaydi.
- maqolalar **o'zbek, qoraqalpoq, rus, ingliz** tillarida qabul qilinadi;
- **YUQORIDAGI TALABLARGA JAVOB BERMAYDIGAN MAQOLALAR TAHRIRGA YUBORILMAYDI.**

Maqolalarni **2025-yilning 15-may kuniga** qadar Maqolalar telegram ijtimoiy tarmog'idagi **@rahmatillo_akbarov** havolasi orqali MS Word.doc shaklda yuborish mumkin. Anjuman bo'yicha ma'lumotlardan habardor bo'lib borish uchun **<https://t.me/oilainstituti2025>** havola orqali telegram messenjerida tashkil etilgan guruhga a'zo bo'lishingiz mumkin.

To'plamga kiritilgan materiallar mualliflar hisobidan chop etilishi munosabati bilan maqolalar har bir sahifa uchun 20000 (yigirma ming) so'mdan qabul qilinadi. Maqola uchun to'lovlar quyidagi raqam orqali 5614 6812 1815 7273 (Akbarov Raxmatillo)ga yuboriladi. To'lovni tasdiqlash uchun to'lov to'g'risidagi ma'lumot (skrinshot) yuqoridagi telegram raqamiga yuborish so'raladi.

Qo'shimcha savollar bo'yicha mas'ul Akbarov Raxmatilloga (+99894 606 22 00) murojaat etishingiz mumkin:

Tashkiliy qo'mita